

**RESPUBLIKAMIZ AHOLISING BUG‘DOY UNIGA BO‘LGAN EHTIYOJI
VA BUG‘DOY UNINING ISTEMOLDA TUTGAN O‘RNI HAMDA
AHAMIYATI**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti SHahrisabz filiali assistenti

Uzoqov Yusuf Axrol o‘g‘li

E-mail: Yusufuzoqov@inbox.ru

Toshkent kimyo-texnologiya instituti SHahrisabz filiali talabasi

Sodiqov Saidkamol Zaripboy o‘g‘li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti SHahrisabz filiali talabasi

Eshniyozov Paxlavon Akbar o‘g‘li

ANNOTATSIYA

Bizning mentalitimizda un va un mahsulotlari iste‘moli yuqori o‘rinda turadi, bu bizning qon-qonimizga singib ketgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boshqa xalqlarga nisbatan bizda unli mahsulotlar xususan non mahsulotlari iste‘moli boshqa xalqlarga nisbatan yuqori o‘rinda turadi. Shundan kelib chiqib ham bizda don mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bundan tashqari aholi sonini ortib borishi ham mahsulot hajmini oshirib borishni taqozo qiladi.

Kalit so‘zlar: Don, un, Byuler, don mustaqilligi, O‘zdonmahsulot.

ANNOTATION

It is no exaggeration to say that the demand for flour and flour products is in our mentality. Compared to other nations, we have a higher demand for flour products, especially bread products. Based on this, it is necessary to develop the technology of grain products processing in our country. In addition, the increase in the population also requires an increase in the volume of production.

Key words: Grain, flour, Buhler, grain independence, O‘zdonmahsulot.

Mustaqillikning dastlabki yillarida xalqimiz ehtiyojini ta‘minlash maqsadida katta mablag‘ evaziga O‘zbekiston chetdan don mahsulotlarini olib kelar, hali oyoqqa turib olmagan yosh davlatimiz uchun bu moliyaviy jihatdan ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat respublikani don mustaqilligini ta‘minlash to‘g‘risida keng ko‘lamli islohotlar boshlandi.

1994 yildan O‘zbekistonning g‘alla mustaqilligini ta‘minlash dasturi amalga oshirila boshlandi. “O‘zdonmahsulot” Kompaniyasi tarkibida 9 navli un, manniy yormasi ishlab chiqaradigan 52 ta zavod bo‘lgan. Ularning 17 tasi zamonaviy texnologik uskunalar (asosan Shveysariyaning “Byuler AG” firmasi) bilan jihozlangan. 1994 y. “O‘zdonmahsulot” korxonalarida 2945 ming t un ishlab chiqarildi.

Shu tariqa yillar davomida qo‘llanilgan tadbirlar va sarflangan mehnat o‘z samarasini berdi. O‘zbekiston ming yillar oldingi g‘allachilik an‘analarini tikladi va bu sohada o‘zining tarixiy kulminasiyasiga erishdi.

Agar 1992 yilda 1 million 250 ming tonna don yetishtirilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 2020 yilda 8 million tonnadan oshib ketdi [1].

"O‘tgan yillarda mamlakatimiz g‘alla mustaqilligiga erishdi, mahsuldorlik uch baravarga va umumiy yig‘im miqyosi yetti baravardan ko‘proqqa oshdi. Bugun biz nafaqat xalqimiz talabiga javob bera olamiz, balki bug‘doyni eksport ham qilayapmiz" [2].

O‘tgan davr mobaynida don maxsulotlarini qayta ishlash xamda un maxsulotlari ishlab chiqarish sanoati bir qancha hujjatlar, qarorlar, farmonlar bilan yangilanib bordi.

Vazirlar mahkamasining - «Don tayyorlash va non mahsulotlari ishlab chiqarish tizimida xarajatlarni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2002 yil 4 dekabrda 424-son qarori.

Vazirlar mahkamasining «O‘zdonmahsulot» davlat-aksiyadorlik korporatsiyasini «O‘zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to‘g‘risida» 2004 yil 6 avgustda 376-son qarori.

Vazirlar mahkamasining 2006-yil 25-mayda 25-son qarori «Don va donni qayta ishlash mahsulotlari hisobini yuritish tizimini takomillashtirishga, ularning saqlanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar» to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 martda 4707-son «2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirishni ta‘minlash, diversifikatsiyalash, modernizatsiya qilish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi;

2016 yil 18 fevralda 2492-son «Respublika oziq-ovqat sanoatini boshqarishni tashkil yetishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi;

2017 yil 7 fevralda 4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlarida belgilangan vazifalar asosida respublikamizda un ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, ehtiyot qismlarni respublikamizda ishlab chiqarish bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad respublikamiz aholisiga xavfsiz un va un maxsulotlarini yetkazib berish

Vazirlar mahkamasining - «Mamlakatimiz aholisini va iqtisodiyot tarmoqlarini raqobat va bozor mexanizmlarini joriy etish asosida don, un va non bilan ishonchli ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2018 yil 13 sentyabrda 731-son qarori.

Prezident farmoni - "Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 2020 yil 27 oktyabrda 6096-son farmoni [3].

Amalga oshirilgan ishlar natijasida yangi ish urinlari yaratildi, elektr energiya sarfi 15-20 foizgacha kamaydi, ishlab chiqarish hajmi va turlari 2-3 marta ko‘paydi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra har bir kishi yil davomida o'rtacha 133 kg g'alla (bug'doy) donini iste'mol qiladi. Bu raqam bizning respublikada 160-170 kg tashkil qiladi. Bu boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ko'p. 1994 yildan boshlab respublika rahbariyati qarorida paxta ekiladigan dalalar sonini qisqartirib ularga g'alla ekinlari ekila boshladi. Agar 1994 yilda 100000 tonna bug'doy yetishtirilgan bo'lsa, 1998-1999 yillarda bu raqam 4000000 tonnadan oshib ketdi.

2020 yili respublikamiz g'allakorlari 8 mln tonna atrofida hosil yig'ib oldilar. Turli taomlar tayyorlashda un asosiy xomashyolardan biri bo'lib hisoblanadi. Oziq mahsulotlarning qiymati ularning kimyoviy tarkibi va inson organizmining to'liq quvvati va normal faoliyati uchun zarur bo'lgan moddalar majmuasi bilan baholanadi. O'rtacha jismoniy faoliyat uchun inson bir kecha-kunduzda 1200 - 1300 kJ kaloriyaga teng oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishi tavsiya etiladi. 100 g non 1100 - 1300 kJ, 100 g turli makaron gacha quvvatga ega. To'g'ri ovqatlanish uchun zarur oziq-ovqat miqdori insonlarning yoshi, jinsi, mehnat faoliyati va iqlim sharoitiga bog'liq. Oziqaviy quvvati jihatidan non mahsulotlari yuqori o'rinda turadi. Oziqalarning iste'mol qiymatida oqsil muhim ro'l o'ynaydi. Bir kecha-kunduzda inson oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga 80-120 g oqsil iste'mol qiladi. Un mahsulotlari iste'mol qilinganda inson organizmining oqsilga bo'lgan talabining 30-40 foizi, uglevodlarga bo'lgan ehtiyojining esa 50-60 foizi qondiriladi.

Yuqori navli un tarkibida oqsil moddasining miqdori pasayishi sababli almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning iste'mol darajasi ham kamayib boradi. Oliy navli undan tayyorlangan 500 g nonda oqsil moddasi 30 foizdan oshmaydi, I navli unda esa - 35 foiz, II navli unda 40 foizga yaqin va javdari unda 45-55 foizni tashkil qiladi. Xuddi shunga o'xshash boshqa biologik faol aralashmalar, shu jumladan vitaminlar 15-60 foiz, mineral moddalar esa 15-80 foizni tashkil qiladi. Un navlari ichida iste'mol qiymati bo'yicha javdari un yuqori hisoblanadi, unda inson organizmi uchun zarur barcha oziq moddalar mavjud [4].

Donlarda almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalar 25-28 foizni tashkil qiladi. Unda bu nisbat donlardan meva qobiqlari va murtakni olib tashlagandan so'ng aminokislotalarning kamayishi hisobiga pasayadi. Yuqori navli un tarkibida oqsil moddasining miqdori pasayishi sababli almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarning iste'mol darajasi ham kamayib boradi. Oliy navli undan tayyorlangan 500 g nonda oqsil moddasi 30 foizdan oshmaydi, I navli unda esa - 35 foiz, II navli unda 40 foizga yaqin va javdari unda 45-55 foizni tashkil qiladi. Xuddi shunga o'xshash boshqa biologik faol aralashmalar, shu jumladan vitaminlar 15-60 foiz, mineral moddalar esa 15-80 foizni tashkil qiladi. Un navlari ichida iste'mol qiymati bo'yicha javdari un yuqori hisoblanadi, unda inson organizmi uchun zarur barcha oziq moddalar mavjud [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.uzdon.uz> «O‘zdonmahsulot» davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi faoliyati.
2. <https://www.bbc.com> 07.19.2013 Prezident I.A.Karimovning 2013-yilgi g‘alla xosilini yig‘ib olingandagi tabrigi.
3. <https://lex.uz> Don tayyorlash va non mahsulotlari ishlab chiqarish tizimida xarajatlarni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent: 2020 yil, 27 oktyabrda, PF-6096-son.
4. Don va don mahsulotlari tovarshunosligi. Dos. Ayxodjaeva N.K., Ravshanov S.S. Toshkent: 2012-yil.-157 bet .
5. Черняев С.И., Зевакин И.И., Марков М.В. Некоторые аспекты экологии, питания и здоровья //Пищевая промышленность, 2000-с.